

(Ta'lim krediti ajratish bo'yicha oferta namunasi)

**JISMONIY SHAXSLARGA TA'LIM KREDITI AJRATISH BO'YICHA OMMAVIY
OFERTA**

Mazkur Oferta AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "Bank" deb yuritiladi) tomonidan jismoniy shaxslar bilan kredit shartnomasini (bundan buyon matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) tuzish bo'yicha rasmiy taklifi hisoblanadi.

Jismoniy shaxs (bundan buyon matnda "Qarz oluvchi" deb yuritiladi) Oferta shartlari bilan tanishib to'liq va e'tirozsiz aksept qilganidan so'ng Shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

Bank tomonidan Qarz oluvchiga yuborilgan SMS-xabarda ko'rsatilgan kodni ofertani tasdiqlash uchun kiritishi orqali yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul orqali tasdiqlashi mazkur ofertani qabul qilish va akseptlash deb baholanadi.

I. ATAMALAR

1.1. Mazkur ofertada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Kredit – maqsadlilik, qaytarishlik, to'lovlilik, muddatlilik va ta'minlanganlik tamoyillari asosida, milliy valyutada, mazkur ofertada nazarda tutilgan hamda Kreditning individual shartlarida belgilangan shartlar asosida Bank tomonidan Qarz oluvchiga taqdim etiladigan ma'lum miqdordagi pul mablag'lari;

Qarz oluvchi – Kreditdan foydalanish istagida bo'lgan, Kreditni rasmiylashtirish uchun Bankka Ariza taqdim etgan va mazkur oferta asosida kredit rasmiylashtiruvchi jismoniy shaxs;

Kredit ofertasi – Bank tomonidan tasdiqlangan va keng ommaga e'lon qilingan, unda ko'rsatilgan shartlar asosida Kredit ajratish bo'yicha taklif;

Kreditning individual shartlari – Qarz oluvchi tomonidan Kredit olish jarayonida aks ettiriladigan va tasdiqlangan, Bank tomonidan Qarz oluvchi uchun hisoblab chiqilgan ehtimoliy moliyalash summasi doirasida Qarz oluvchiga Kredit ajratishning muayyan shartlari (miqdori, maqsadi, muddati, foiz stavkasi, muddati o'tgan asosiy qarz uchun oshirilgan foiz stavka, ta'minoti va h.k.). Kreditning individual shartlari har bir Qarz oluvchi uchun mazkur Kredit ofertasining **1-ilovasida** keltirilgan shaklda tasdiqlanadi;

Ariza – Qarz oluvchiga Kredit ajratish ehtimolini baholash maqsadida Qarz oluvchi tomonidan (potensial qarz oluvchi tomonidan) Kredit ajratishni so'rab Bankka yuboriladigan (taqdim etiladigan) va Kredit muddati, miqdori va boshqa muhim shartlari ko'rsatilgan, Kredit to'g'risida umumiy axborotni o'z ichiga olgan hujjat;

Ta'lim tashkiloti – O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muddati bir yil va undan ortiqni tashkil etuvchi barcha oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari (*davlat, nodavlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari*);

Jamg'arma – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi;

Bank kartasi – tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovlarni amalga oshirishda bank karta hisobvarag'idagi mablag'lar doirasida tegishli operatsiyalarni amalga oshirish

va/yoki naqd pul mablag'larini olish huquqini beruvchi bank debet kartasi;

Aksept – Qarz oluvchining roziligini bildirishga, Kredit olish uchun Bank tomonidan taklif qilingan shartlarni qabul qilishga yo'naltirilgan harakatlari;

Kreditning to'liq qiymati – Kredit olish bilan bog'liq to'lovlarning haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi.

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan shartlarda pul summasini (mablag'ini) ajratish majburiyatini, Qarz oluvchi esa ajratilgan Kredit bo'yicha to'lovlarni Shartnomaning **2-ilovasi** bo'lgan Kreditni qaytarish jadvalida (bundan buyon matnda "**Jadval**" deb yuritiladi) ko'zda tutilgan muddatlarda qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

III. UMUMIY QOIDALAR

3.1. Kredit mazkur Ofertada ko'rsatilgan shartlar asosida Bank tomonidan talaba va Ta'lim tashkiloti o'rtasidagi to'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt)ga asosan Ta'lim tashkilotining hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan ajratiladi va shu kundan boshlab kredit ajratilgan deb tan olinadi.

3.2. Kredit talaba va Ta'lim tashkiloti o'rtasidagi to'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt)ga asosan bir yillik to'lov kontrakt summasidan oshmagan miqdorda ajratiladi.

3.3. Qarz oluvchining xohishiga ko'ra, uning arizasiga asosan Kredit mablag'i o'quv yili mobaynida o'qish uchun yillik to'lovning to'liq miqdorini teng ulushlarda to'rt qismga bo'lish yo'li bilan yoki o'qishning yarim yil yoki to'liq bir yil uchun to'lov summasini biryo'la ko'chirish yo'li bilan ajratilishi mumkin.

3.4. Qarz oluvchining olgan ta'lim krediti bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lsa yoki muntazam ravishda to'lov muddatini o'tkazib kelgan bo'lsa, Qarz oluvchiga to'lov-kontraktning navbatdagi qismi bo'yicha ta'lim kreditini ajratish rad etiladi.

3.5. Bank mazkur shartnomada nazarda tutilmagan maqsadlar uchun Kredit summasini o'tkazish to'g'risidagi Qarz oluvchining to'lov hujjatlarini (arizasini) qabul qilmaydi, qabul qilingan to'lov hujjatlarini (arizalarni) ijrosiz Qarz oluvchiga qaytaradi.

3.6. Kredit Bankning o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan hollarda Qarz oluvchining arizasida ko'rsatilgan muddatga ajratiladi, Kredit Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan hollarda Kreditning asosiy qarz to'lovini talabanning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 (yetti) yil davomida qaytarish sharti bilan ajratiladi.

3.7. Kredit bo'yicha foizlar Kredit ajratilgan kundan boshlab Kreditning asosiy qarzni to'liq qaytarilgan kunigacha uning qoldiq summasiga nisbatan kunlik hisoblab boriladi. Foizlar yiliga 365 kunlik asosda hisoblanadi.

3.8. Kredit Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirish sharti bilan ajratilganda Kreditning foiz stavkasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda kamayadi, oshirilgan taqdirda esa – o'zgarishsiz qoladi (Kredit xotin-qizlarga ajratilgan holatlar bundan mustasno).

3.9. Kreditning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning 1-ilovasiga asosan hisoblanadi va Kreditning individual shartlarida batafsil aks ettiriladi.

3.10. Kredit olish uchun Qarz oluvchi tomonidan Bankka tadqim qilingan Arizani Qarz oluvchi tomonidan yuborilganligi faktini tasdiqlash uchun, Qarz oluvchi uning shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berishga hamda Qarz oluvchi nomiga uchinchi shaxslar tomonidan kredit rasmiylashtirilishini oldini olish maqsadida ma'lumotlar olinishiga Bankka o'z roziligini bildiradi.

3.11. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi quyidagilarga roziligini bildiradi:

3.11.1. Kredit Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, mutanosib ravishda Bank tomonidan Kredit bo'yicha foiz stavkasining bir tomonlama pasaytirilishiga (Kredit xotin-qizlarga ajratilgan holatlar bundan mustasno);

3.11.2. Aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo'natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo'natmalarini va bildirishnomalarni jo'natishga;

3.11.3. Davlat personallashtirish markazidan olingan shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzcard, Humo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbaalardan shaxsga doir ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lumotlarni olishga;

3.11.4. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda Bank tomonidan muddati o'tgan qarzдорlikni qoplash uchun zaruriy summalar avtomatik hisobdan chiqarish xizmati orqali yechib olinishiga hamda ushbu xizmat uchun Bankning amaldagi Tarifida nazarda tutilgan miqdorda xizmat haqi undirilishiga.

3.12. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchiga ko'rsatilgan va/yoki ko'rsatilayotgan barcha bank xizmatlari uchun Qarz oluvchi amaldagi Bank Tarifida nazarda tutilgan bank xizmat haqini Bankka to'laydi.

3.13. Yangi tahrirdagi tariflarni Bankning rasmiy veb sayti (www.aloqabank.uz)da e'lon qilinishi, Qarz oluvchini bu haqda xabardor qilingan deb hisoblash uchun yetarli bo'ladi va uning shartlari Shartnoma Taraflari uchun majburiy hisoblanadi.

3.14. Qarz oluvchi foydalanilmagan Kreditdan voz kechganda, Qarz oluvchi tomonidan qilingan har qanday xarajatlar Bank tomonidan qaytarilmaydi (qoplanmaydi).

3.15. Bank O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, oldindan ogohlantirmasdan Qarz oluvchining barcha operatsiyalarini to'xtatib turishi, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulklarini ishga solmay to'xtatib qo'yishi mumkin.

IV. KREDITNI QAYTARISH TARTIBI

4.1. Kredit bo'yicha to'lovlarni qaytarish Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov Jadvali (2-ilova)ga asosan har oy Kreditning individul shartlarida ko'rsatilgan qaytarish usulida (differensial/annuitet), Kredit ajratilgan oyning keyingi oyidan boshlab amalga oshiriladi. Bunda, Kredit Jamg'arma mablag'lari hisobidan xotin-qizlarga ajratilgan hollarda ushbu Kredit bo'yicha foiz to'lovlari Jamg'arma tomonidan har 3 (uch) oyda qoplab beriladi.

4.2. Xotin-qizlarga ajratilgan Kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni Jamg'arma tomonidan qoplab berish to'xtatilganda yoki belgilangan muddatda qoplanmagan taqdirda, Kredit bo'yicha foiz to'lovlari Qarz oluvchi tomonidan to'lanadi.

4.3. Kreditning har oydagi to'lov sanasi haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e'lon qilingan bayram kunlariga to'g'ri kelganda to'lov sanasi keyingi ish kuniga ko'chiriladi.

4.4. Kreditning oxirgi to'lov sanasi (oxirgi muddati) haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e'lon qilingan bayram kunlariga to'g'ri kelganda oxirgi to'lov sanasi oldingi ish kuniga ko'chiriladi.

4.5. Kredit bo'yicha qarzдорlikni muddatidan avval qaytarilishiga ruxsat etiladi. Kreditni muddatidan avval qaytarilganligi uchun qo'shimcha to'lovlar undirilmaydi.

4.6. Kredit va unga hisoblangan foizlar bo'yicha qarzдорlikni qaytarish Qarz oluvchining ish haqi, boshqa daromadlari va tushumlaridan mablag'larni o'tkazish orqali, naqd pul kirim qilish orqali, bank kartalaridan mablag'larni o'tkazish orqali, Qarz oluvchining Kredit bo'yicha Bankdagi tranzit hisobvarag'iga o'tkazib berish orqali, avtomatik tarzda bank kartalaridan yechish yo'li orqali hamda infokiosklar, mobil ilovalar yoki boshqa elektron to'lov tizimlari yordamida to'lov qilish orqali amalga oshiriladi.

4.7. Kredit bo'yicha qarzдорlikni qaytarish uchun amalga oshirilgan to'lov summasi Kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, kelib tushgan mablag' quyidagi keltirilgan ketma-ketlikda qarzдорlik summasini qoplash uchun yo'naltiriladi:

- birinchi navbatda – asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

- ikkinchi navbatda – joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik;

- uchinchi navbatda – Bankning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.8. Jamg'arma tomonidan foiz to'lovlarni qoplash uchun to'lab berilgan mablag'lar kelib tushganda, ushbu mablag'lar faqat Kreditning foizi bo'yicha qarzдорlikni so'ndirishga yo'naltiriladi.

4.9. Kredit to'lovi uchun Jadvalda belgilangan sanadan oldin yoki Kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik summasidan ortiqcha mablag' kelib tushsa, birinchi navbatda muddatli asosiy qarzdandan tashqari barcha qarzдорliklar (muddati o'tgan asosiy qarz, muddati o'tgan foiz, jarima, Bankning qarzдорlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari, joriy davr uchun hisoblangan foizlar, joriy davr uchun asosiy qarz) so'ndiriladi, undan so'ng ortib qolgan mablag'dan navbatdagi to'lov sanasiga qadar hisoblanishi kutilayotgan foiz summasiga teng mablag'ni ushlab qolgan holda ortiqcha qismi Kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiriladi.

4.10. Qarz oluvchidan Kreditning to'lovi uchun Jadvalda belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa va kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismi Kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilganda Jadval qayta rasmiylashtirilmaydi. Bunda, Jadval Qarz oluvchining arizasiga asosan Bankning amaldagi tarifidan kelib chiqib qayta rasmiylashtirilishi mumkin.

4.11. Qarz oluvchi tomonidan Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida qaytarilmaganda Bank Kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarish choralari ko'radi.

4.12. Bank Qarz oluvchiga ajratilgan Kredit to'lovlarini undirish harakatlarini amalga oshirish jarayonida undiruvni Qarz oluvchi nomiga ochilgan har qanday hisobvaraqa qaratishi mumkin va bunda Qarz oluvchining roziligi talab qilinmaydi.

4.13. Qarz oluvchi mazkur Ofertani akseptlash orqali ajratilgan Kredit to'lovlarini undirish harakatlarini amalga oshirish jarayonida Bank bilan munosabatga kirishgan shaxslarning shaxsga oid ma'lumotlarini qayta ishlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq harakatlariga o'z roziligini bildirgan hisoblanadi.

V. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning majburiyatlari:

5.1.1. Shartnomada belgilangan shartlar va miqdor doirasida Qarz oluvchiga Kredit mablag'ini naqd pulsiz pul o'tkazish orqali berish;

5.1.2. Qarz oluvchiga kredit hisobvarag'ini ochish;

5.1.3. Kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu Kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga Kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabarnoma yuborish;

5.1.4. Kredit muddatidan oldin undiriladigan hollarda bu to'g'risida Qarz oluvchini Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabardor qilish;

5.1.5. Bank tomonidan Kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarni so'ndirish uchun Qarz oluvchining bank hisobvarag'i va (yoki) omonatidan (shu jumladan, bank kartalaridan) mablag'lar Qarz oluvchining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Qarz oluvchiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish.

5.2. Bankning huquqlari:

5.2.1. Qarz oluvchi tomonidan Kredit bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishi to'g'risida ma'lumotlarni Kredit byurolari va Kredit ma'lumotlarining davlat reestriga taqdim etish;

5.2.2. Kredit bo'yicha to'lovlar haqida Qarz oluvchiga xabar berish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish;

5.2.3. Shartnoma tuzilgandan keyin Qarz oluvchi to'lovga layoqatsiz deb topilganda, Kreditni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki Kreditni

rasmiylashtirish jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda, Kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish;

5.2.4. Qarz oluvchi Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun davomida Kreditdan umuman foydalanmasa Qarz oluvchining kreditni o'tkazish to'g'risida arizasini bajarmaslik;

5.2.5. Kredit qismlarga bo'lib bosqichma-bosqich ajratilgan hollarda Qarz oluvchi Kreditdan 1 (bir) yil ichida to'liq foydalanmasa Kreditning foydalanilmay qolgan qismini ajratishni rad qilish;

5.2.6. Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan Kreditni (shu jumladan, hisoblangan foizlarni) muddatidan oldin qaytarishni talab qilish, undirib olish:

5.2.6.1. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;

5.2.6.2. Ajratilgan Kredit turli sabablarga ko'ra ta'minotsiz bo'lib qolganda;

5.2.6.3. Qarz oluvchi tomonidan yolg'on ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilganda;

5.2.6.4. Qarz oluvchi Kreditdan maqsadsiz foydalanganda;

5.2.6.5. Qarz oluvchiga har qanday shaklda jinoyat ishlari yoki fuqarolik ishlari bo'yicha Qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan da'volar qo'zg'atilgan bo'lsa;

5.2.6.6. Bankda ushbu Shartnoma bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish, tasarruf etishda firibgarlik holatlari bilan bog'liq shubhalar mavjud bo'lganda;

5.2.6.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.7. Kreditning asosiy qarz qismi bo'yicha muddati o'tgan majburiyatlar yuzaga kelganda Qarz oluvchidan oshirilgan foiz stavka bilan hisoblangan summani undirish;

5.2.8. Kredit Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi pasaytirilgan taqdirda, Qarz oluvchini ogohlantirgan holda mutanosib ravishda Kreditning foiz stavkasini bir tomonlama pasaytirish (Kredit xotin-qizlarga ajratilgan holatlar bundan mustasno);

5.2.9. Bankning amaldagi Kredit siyosati va kreditlashga oid ichki nizom va tartib talablaridan kelib chiqib, shuningdek Qarz oluvchi yoki kafil shaxslar skoring talablariga mos kelmaganda Qarz oluvchiga to'lov-kontraktning navbatdagi qismi bo'yicha yoki keyingi yillar uchun ta'lim Krediti ajratishni rad etish;

5.2.10. Qarz oluvchining Bankda hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan Kredit bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni va barcha hisoblangan neustoykalarini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish);

5.2.11. Qarz oluvchi tomonidan to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda muddati o'tgan qarzdorlikni qoplash uchun zaruriy summalar avtomatik hisobdan chiqarish xizmati orqali yechib olinganda Bankning amaldagi Tarifida nazarda tutilgan miqdorda xizmat haqi undirish;

5.2.12. Shartnoma bo'yicha hamma summalarni Qarz oluvchining barcha mol-mulkleri (mulkiy huquqlari), elektron pullari va ta'minotlar hisobidan undirib olish;

5.2.13. Qarz oluvchining yashash joyida va doimiy ro'yxatdan o'tgan joyida Kreditning maqsadli ishlatilishi hamda garov mulki holatini o'rganish yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;

5.2.14. Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiya (shaxsni tekshirish) jarayonini amalga oshirish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Qarz oluvchi bilan bog'lanish;

5.2.15. Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan Qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish;

5.2.16. Qarz oluvchi bilan telefon raqamlari, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari orqali bog'lanish va ularni yozib olish, Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) ushbu Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish to'g'risida xatlar, elektron pochta xabarlari va SMS-xabarlarni yuborish;

5.2.17. O'z hisobidan, Qarz oluvchini xabardor qilmasdan, Kreditning qaytarilmasligi xavfini sug'urta qilish;

5.2.18. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda taqdim qilingan sug'urta polisi bo'yicha Kredit qisman yoki to'liq qoplab berilganda, sug'urta to'voni to'langan to'lov miqdori doirasida Shartnoma bo'yicha regress talab huquqini bir tomonlama Sug'urta qiluvchiga o'tkazish (subrogatsiya);

5.2.19. Bank Qarz oluvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish).

5.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:

5.3.1. Kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni Jadvalga asosan o'z vaqtida to'lash;

5.3.2. Olingan Kreditni, Kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi Bankning so'rovini olgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida to'lab berish;

5.3.3. Familiyasi yoki ismi, telefon raqami, ro'yxatdan o'tgan manzili, yashash joyi, pasport ma'lumotlari o'zgarganda va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlar haqida 3 (uch) ish kuni ichida Shartnomada belgilangan aloqa kanallari orqali yoki Bankning Kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlariga borgan holda Bankka xabar berish;

5.3.4. O'ziga nisbatan huquqni muhofaza qilish organlari, nazorat qiluvchi organlar yoxud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari, iqtisodiy, moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan boshlab Bankka 2 (ikki) ish kuni ichida xabar berish;

5.3.5. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash uchun chiqib ketayotgan holda Kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval qaytarish;

5.3.6. Bank xodimlariga Kredit va garov mulki holatini o'rganish bo'yicha monitoring o'tkazilishida sharoit yaratib berish;

5.3.7. Tijorat banklarida ochilgan barcha bank hisobvaraqlaridan Shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur summani akseptsiz hisobdan

chiqarish to'g'risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so'zsiz talab qo'yish huquqini Bankka taqdim etish;

5.3.8. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda Bank tomonidan muddati o'tgan qarzdorlikni qoplash uchun zaruriy summalar avtomatik hisobdan chiqarish xizmati orqali Bank tomonidan yechib olinganda Bankning amaldagi Tarifida nazarda tutilgan miqdorda xizmat haqi to'lash.

5.4. Qarz oluvchining huquqlari:

5.4.1. Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda Kredit berilishini talab qilish;

5.4.2. Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab pul mablag'lari ajratilgunga (o'tkazib berilgunga) qadar Kreditni olishdan bepul voz kechish;

5.4.3. Kreditni istalgan vaqtda muddatidan oldin jarima sanksiyalarisiz so'ndirish;

5.4.4. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni Bankka to'liq qaytarilgan holda ushbu Shartnomani muddatidan avval bekor qilish.

VI. TA'MINOT

6.1. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minoti sifatida Kreditning individual shartlarida (**1-ilova**) keltirilgan ta'minot turlarini taqdim etadi.

6.2. Ta'minot mol-mulk garovi bo'lganda Qarz oluvchi garov obyektini Bank foydasiga yong'in, zilzila, yo'l transport hodisasi va boshqa sug'urta hodisalaridan Kredit muddatiga mos ravishda sug'urtalaydi.

6.3. Kreditning qaytmaslik xataridan hamda garov mulki bo'yicha sug'urta polisi tegishli sug'urta kompaniyasi tomonidan Bankka onlayn shaklda taqdim etiladi va ushbu polis Bank ma'lumotlar bazasida saqlanadi.

6.4. Bankning Shartnoma bo'yicha Kredit ajratish majburiyati Kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjat belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilganidan so'ng kuchga kiradi.

6.5. Qarz oluvchi Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarilishi ta'minotini taqdim etmaguncha Bank kredit hisobvarag'i ochmasligi yoki Kredit bo'yicha pul o'tkazish to'g'risidagi to'lov hujjatlarini (arizani) ijroga qabul qilmasligi, qabul qilingan to'lov hujjatlarini (arizalarni) ijrosiz qaytarishi mumkin.

6.6. Qarz oluvchi ta'minotga taqdim etilgan obyektlarni (mol-mulkni, mulkiy huquqlarni, huquqlarni) Kredit va uning foizlari to'liq to'languncha Bankning rozilgisiz sotishga yoki boshqacha tarzda realizatsiya qilishga haqli emas.

6.7. Kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mulkka shikast yetkazilganda yoki turli sabablarga ko'ra yaroqsiz holga kelib qolganda Qarz oluvchi 10 (o'n) ish kuni ichida Kredit ta'minotiga qo'shimcha ravishda likvidli mol-mulk, kafillik yoki qonunchilikda belgilangan boshqa ta'minot turini taqdim etadi.

6.8. Kredit ta'minoti sifatida kafilligi qabul qilingan jismoniy shaxs(lar) to'lov qobiliyatini yo'qotgan hollarda (masalan: ishsiz qolganda, vafot etganda, turli sabablarga ko'ra mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganda) Qarz oluvchi 10 (o'n) ish kuni ichida kredit ta'minotiga qo'shimcha ravishda likvidli mol-mulk, kafillik yoki qonunchilikda belgilangan boshqa ta'minot turini taqdim etadi.

6.9. Kredit muddati tugamasidan oldin Kredit ta'minoti sifatida kafilligi qabul qilingan jismoniy va/yoki yuridik shaxsning kafilliklari almashtiriladigan bo'lsa, Bosh bank mas'ul departamenti xulosasi asosida ruxsat beriladi.

VII. MONITORING

7.1. Bank bevosita Qarz oluvchining yashash joyida va doimiy ro'yxatdan o'tgan joyida yoki talaba tahsil olayotgan Ta'lim tashkilotida Kreditning maqsadli ishlatilishi hamda garov mulki holatini o'rganish yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirishi mumkin.

7.2. Qarz oluvchi Bankning so'roviga ko'ra Kreditning maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (hisob-faktura, tahsil olayotganligi to'g'risida Ta'lim tashkilotidan ma'lumotnoma va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar) Bankka taqdim etadi.

7.3. Quyidagi hollarda Kredit maqsadsiz sarflangan yoki maqsadsiz foydalanilgan deb hisoblaniladi:

7.3.1. Qarz oluvchi Kredit ajratilganidan so'ng Bank xodimlariga Kredit monitoringini o'tkazilishida to'sqinlik qilsa yoki sharoit yaratib bermasa;

7.3.2. Kredit rasmiylashtirilayotganda Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;

7.3.3. O'tkaziladigan monitoring natijalariga ko'ra Kredit maqsadsiz sarflangan yoki maqsadsiz foydalanilgan deb topilsa.

7.4. Qarz oluvchi yoki unga kafil bo'layotgan jismoniy shaxslarning daromad manbalariga nisbatan shubha uyg'onganida yoki kreditni qaytarilishi muammoga aylanganida Bank vakillari Qarz oluvchi yoki unga kafil bo'lgan jismoniy shaxslarning ish joylariga borib yoki boshqa usullar orqali ularning haqiqatan ishlayotganligi va oylik daromadlari to'g'risida ish joyidan tasdiqlangan ma'lumotnoma olishi yoxud kafil yuridik shaxs bo'lganda uning moliyaviy holatini monitoring qilishi mumkin.

7.5. Qarz oluvchiga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, nazorat qiluvchi organlar yohud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari, iqtisodiy, moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida Bankka 2 (ikki) ish kuni ichida xabar beradi.

VIII. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI

8.1. Quyidagi hodisalarning har biri majburiyatlarning bajarilmasligi holati hisoblanadi:

8.1.1. Mazkur Kredit ofertasida va ofertaning ajralmas qismi hisoblangan Jadvalda belgilangan muddatlarda Kredit, foizlar va/yoki boshqa to'lovlar amalga oshirilmaganligi;

8.1.2. Qarz oluvchi tomonidan Ariza taqdim qilish yoki kreditni rasmiylashtirish jarayonida qasddan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim qilgan holda Bankni chalg'itish;

8.1.3. Bankning xulosasiga ko'ra, Kredit bo'yicha Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilgan ta'minotning qisman yoki to'liq o'z qiymati (kuchi)ni yo'qotganligi;

8.1.4. Qarz oluvchining to'lovga qodirligi yomonlashganligi yoki Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning muntazam ravishda bajarilmasligiga olib keladigan aniq axborotning yashirilishi;

8.1.5. Shartnoma shartlarining buzilishi.

IX. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

9.1. Taraflardan biri Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, aybdor Taraf ikkinchi Tarafga yetkazilgan zarar qismini qoplaydi va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga va Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

9.2. Qarz oluvchi Shartnomaga asosan Kreditni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va Bankka Shartnoma majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

9.3. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda neustoykadan tashqari yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

9.4. Bank Kredit berish majburiyatini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda Qarz oluvchi oldida qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

9.5. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun hisoblangan neustoykani to'lash majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

9.6. Qarz oluvchining telefon raqami o'zgarganligi, ishlamaganligi yoki yangi raqamini Bankka taqdim qilmaganligi sababli Qarz oluvchiga SMS-xabarlar bormaganligi uchun Bank javobgar hisoblanmaydi.

9.7. Qarz oluvchi yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxs hatti-harakatlari yuzasidan tegishli tashkilotlar tomonidan Qarz oluvchiga yoki u bilan munosabatga kirishgan shaxsga qo'llanilgan har qanday choralar, jumladan sanksiyalar (tegishli ro'yxatlar, OFAC, Yevropa Ittifoqining Mar va OFSI, SDN va CARTA sanksiyalari) shuningdek, sanksiyalar oqibatida vujudga keladigan har qanday turdagi zararlar uchun Bank o'z majburiyatlarini bajarganligi yoki lozim darajada bajarmaganligidan qat'iy nazar javobgar hisoblanmaydi.

9.8. Mazkur shartnoma asosida Bank o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi munosabati yuzasidan so'ralgan ma'lumotlarning Qarz oluvchi tomonidan real vaqt rejimida taqdim etilmasligi yoki yolg'on ma'lumot berilganligi natijasida Bankka yetkazilgan har qanday zarar uchun Qarz oluvchi javobgar hisoblanadi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH

10.1. Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida vujudga keladigan kelishmovchiliklar Taraflar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

10.2. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda va/yoki Qarz oluvchi nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sudga ko'rib chiqiladi.

XI. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

11.1. Shartnoma Qarz oluvchi tomonidan akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

11.2. Shartnoma Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

11.3. Qarz oluvchi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun talablariga hamda boshqa amaldagi qonun, qonun osti hujjatlariga rioya qilmaganda shartnoma bir tarafdama Bank tomonidan bekor qilinadi.

XII. ANTIKORRUPSIYAGA OID SHARTLAR

12.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi ta'qiqlanadi.

12.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

12.3. Agar shartnoma taraflarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tarafga bunday harakat sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shaklda (yoki Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi/Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi rahbariga aloqa kanallari yordamida) xabar berish majburiyatini oladi.

12.4. Xabarni olgan taraf haqiqatan korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

12.5. Ushbu bo'lim qoidalari taraflardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa taraf qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir tarafdama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

12.6. Pora berish evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

XIII. YAKUNIY SHARTLAR

13.1. Shartnoma elektron tarzda tuzilib, Qarz oluvchi tomonidan Kredit ofertasini akseptlash orqali tasdiqlanadi va yozma ko'rinishidagi hujjatning yuridik kuchiga ega bo'ladi.

13.2. Shartnoma bo'yicha Taraflarning tartibga solinmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

13.3. Taraflar o'rtasidagi xat-xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin: Qarz oluvchining Bankka ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) yozma shaklda jo'natish yoki Qarz oluvchining elektron pochtaga, telefon raqamlariga,

ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlariga xabar jo'natish yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron xabar jo'natish.

13.4. Qarz oluvchi amalga oshirilgan to'lovlar va kredit qarzdorligi miqdori (asosiy qarz, foiz, oshirilgan foizi va muddati o'tgan qarzdorliklar) haqida, shuningdek Shartnoma bilan bog'liq boshqa holatlar bo'yicha uyali aloqa vositalari orqali SMS-xabarlar yuborilishiga Bankka o'z roziligini bildiradi.

XIV. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

AT "Aloqabank"

Manzil: _____

MFO: _____

STIR: _____

Tel: _____

XV. QARZ OLUVCHINING MANZILI VA REKVIZITLARI

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____

Tug'ilgan sanasi: ____ . ____ . ____


Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____



[Qarz oluvchi 18 yoshga to'lmagan bo'lsa, uning ota-onasi, farzandlikka oluvchisi yoki homiysining quyidagi yozma roziligi rasmiylashtirilishi lozim]

Qarz oluvchining _____ ning mazkur

(qarindoshligi – otasi, onasi, farzandlikka oluvchisi, homiysi) (F.I.SH)

bitim tuzilishi bo'yicha yozma roziligi

Men, _____ talaba _____ ning _____

(qarindoshining F.I.SH.)

(talabaning F.I.SH.)

(qarindoshligi)

sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 27-moddasiga muvofiq AT "Aloqabank" va _____ o'rtasida ta'lim krediti olish bo'yicha

(talabaning F.I.SH.)

mazkur bitim tuzilishiga o'z roziligimni bildiraman.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 27-moddasi:

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar, ushbu moddaning ikkinchi qismida sanab o'tilganlardan tashqari, bitimlarni o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Bunday voyaga

yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim keyinchalik shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysi yozma ravishda ma'qullaganidan so'ng, u ham haqiqiy hisoblanadi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

- 1) o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;
- 2) fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish;
- 4) ushbu Kodeks 29-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq o'zlari tuzgan bitimlar bo'yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo'ladilar. Bunday voyaga yetmaganlar o'zlari yetkazgan zarar uchun ushbu Kodeksga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida sud ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki homiyning yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga muvofiq o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganning o'z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etish huquqini cheklab qo'yishi yoki bu huquqdan mahrum qilishi mumkin, bunday voyaga yetmagan shaxs ushbu Kodeks 22-moddasining ikkinchi qismiga yoki 28-moddasiga muvofiq to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'lgan hollar bundan mustasno.

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____

Tug'ilgan sanasi: ____ . ____ . ____


Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____



KREDITNING INDIVIDUAL SHARTLARI

Kreditning to'liq qiymati	
_____ (_____)	foiz
<i>(miqdori)</i>	<i>(so'z bilan)</i>

1. Kredit miqdori: _____ (_____) so'm.
(summa) (summa so'z bilan)
2. Kreditdan foydalanish muddati: _____ (_____) oy.
(muddat) (so'z bilan)
3. Asosiy qarz to'lovlari bo'yicha imtiyozli davr: dastlabki _____ (_____) oy
(soni) (soni so'z bilan)
davomida.
4. Kreditni so'ndirishning oxirgi muddati: _____._____._____ yil.
(sana)
5. Kreditning maqsadi: _____ da tahsil olish uchun to'lov-
(Ta'lim tashkiloti nomi)
kontrakt (shartnoma) to'lovini to'lash uchun.
6. Kredit valyutasi: O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi;
7. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi: Yillik _____ (_____) foiz.
(miqdori) (miqdor so'z bilan)
8. Kreditning muddati o'tgan asosiy qismi uchun oshirilgan foiz stavka: Kredit bo'yicha foiz stavkaning _____ barobari, ya'ni yillik _____ (_____)
(miqdori) (miqdori) (miqdori so'z bilan)
9. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi turi taraflarning kelishuviga ko'ra: o'zgaruvchi/o'zgarmas.
10. Kredit bo'yicha to'lovlarni to'lash sanasi: har oyning _____ sanasigacha.
(sana)
11. Kreditni ajratish shakli: Naqd pulsiz pul o'tkazib berish yo'li orqali.
12. Kreditni qaytarish usuli: Shartnomaga ilova qilingan differensial/annuitet usulda hisoblangan to'lov grafigiga muvofiq.
13. Kredit ta'minoti: [Xxxxxxxxxx Xxxxxxxxxx Xxxxxxxxxning kafilligi. / Kreditning qaytmaslik xataridan " _____ " sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi.]
(ta'minot nomi)
14. Kreditning to'liq qiymati _____ (_____) foizni tashkil qiladi
(miqdori) (miqdor so'z bilan)
va u quyidagi to'lovlarni hisobga olib hisoblanadi:
 - a) Kreditning asosiy qarzi – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)
 - b) Foizlar bo'yicha to'lovlar – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)
 - c) Sug'urta to'lovlari – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)
 - d) Garov mulkini baholash bo'yicha to'lovlar – _____ (_____) so'm, ____ tiyin;
(summa) (summa so'z bilan)
 - e) Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat

banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning 1-ilovasiga asosan boshqa to'lovlar – _____ (summa) (_____ (summa so'z bilan)) so'm, ____ tiyin.

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____

Tug'ilgan sanasi: ____ . ____ . ____

Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____



KREDITNI QAYTARISH GRAFIGI (Namuna)

Ushbu kreditni qaytarish javdali ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit summasi **30 000 000 UZS**
 Kredit yillik foizi **32,00%**
 Kredit muddati (oy) **36**
 Imtiyozli davr (oy) **0**

MFO: 00401
To'lov ID kodi: xxxxxxxxxxx

№	To'lov sanasi	Kredit qoldig'i summasi	Asosiy qarzni qaytarish	Kredit foizi	Bir oylik jami to'lov
				32%	
1	29.02.2024	30 000 000,0	1 250 000,0	815 342,5	2 065 342,5
2	29.03.2024	28 750 000,0	1 250 000,0	730 958,9	1 980 958,9
3	29.04.2024	27 500 000,0	1 250 000,0	747 397,3	1 997 397,3
...
...
...
...
24	29.01.2026	1 250 000,0	1 250 000,0	33 972,6	1 283 972,6
JAMI:			30 000 000,0	10 003 287,7	40 003 287,7

F.I.Sh.: _____

Manzil: _____

Tug'ilgan sanasi: ____ . ____ . ____

Pasport ma'lumotlari: _____

JShShIR: _____

Aksept kodi: _____

Aksept vaqti: _____

Telefon raqami: _____

